



*2024- yil yanvar oyi uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar oyida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 393,7 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 38,0 mln. AQSH dollariga yoki 8,8 %ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **393,7** -8,8 %

(2023-y.: **431,7**)



Saldo

2024-y.: **-161,4** (2023- y.: -183,9)




Eksport

2024-y.: **116,2** -6,2 %

(2023-y.: **123,9**)

TSAdagi ulushi, % da



Import

2024-y.: **277,5** -9,8 %

(2023-y.: **307,8**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 116,2 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 6,2 %ga kamaydi) va import hajmi 277,5 mln. AQSH dollariga (9,8 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -161,4 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.




TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar mln. AQSH dollari)

<p>XXR</p> <p>TSA – 124,2</p> <p>Eksport: 33,6 Import: 90,6</p> <p> 31,5 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 96,1</p> <p>Eksport: 41,4 Import: 54,7</p> <p> 24,4 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 42,0</p> <p>Eksport: 5,6 Import: 36,4</p> <p> 10,7 %</p>	<p>Italiya</p> <p>TSA – 27,8</p> <p>Eksport: 1,6 Import: 26,2</p> <p> 7,1 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 2 343,2</p> <p>Eksport: 11,3 Import: 14,3</p> <p> 6,5 %</p>
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 11,4</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 11,2</p> <p> 2,9 %</p>	<p>Belorussiya</p> <p>TSA – 9,5</p> <p>Eksport: 1,1 Import: 8,4</p> <p> 2,4 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 4,9</p> <p>Eksport: 4,9 Import: 0,0</p> <p> 1,2 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 4,4</p> <p>Eksport: 1,9 Import: 2,5</p> <p> 1,1 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 4,6</p> <p>Eksport: 3,1 Import: 1,5</p> <p> 1,2 %</p>




YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2023- y.	2024- y.
	XXR	50,1	124,2
	Eksport	4,2	33,6
	Import	45,8	90,6
	Rossiya	105,3	96,1
	Eksport	37,1	41,4
	Import	68,2	54,7
	Qozog'iston	92,5	42,0
	Eksport	5,2	5,6
	Import	87,3	36,4
	Italiya	3,6	27,8
	Eksport	9,1	1,6
	Import	2,7	26,2
	Turkiya	51,9	25,6
	Eksport	39,4	11,3
	Import	12,5	14,3
	Germaniya	14,1	11,4
	Eksport	2,5	0,2
	Import	11,6	11,2
	Belorussiya	9,4	9,5
	Eksport	1,2	1,1
	Import	8,2	8,4
	Afg'oniston	3,5	4,9
	Eksport	3,4	4,9
	Import	0,1	0,0
	Tojikiston	4,9	4,6
	Eksport	2,1	3,1
	Import	2,8	1,5
	Qirg'iziston	2,7	4,4
	Eksport	1,1	1,9
	Import	1,6	2,5




HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar, mln. AQSH doll.)*





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,6 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 27,7 %ga kamaydi.



Toshkent viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar oyida 2023 yilning mos davriga nisbatan 11,1 %ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 59,4 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar oyida 159,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 54,5 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 105,2 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar, ulushi, %da)

Rossiya – 35,6		Qozog'iston – 4,8	
Tojikiston – 2,7		Qirg'iz Respublikasi – 1,7	
Turkmaniston – 0,2		Belarus – 0,9	
Ozarbayjon – 0,5		Ukraina – 0,5	
Armaniston – 0,1		Moldova – 0,1	



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (35,6%), Qozog'iston (4,8%) hamda Tojikiston (2,7%) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'rishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 401 taga yetdi va ular tomonidan 116,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 6,2 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar ulushi %da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	123,9	116,2	91,2	93,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,2	15,9	96,5	104,9	12,2	13,6
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	117,7	94,5	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,0	4,2	31,4	2,1 m.	1,7	3,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	1,3	5,2 m.	10,8 m.	0,1	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,9	0,0	0,0	0,0	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	6,6	5,4	170,7	83,9	5,2	4,7
Sanoat tovarlari	80,8	61,5	87,4	76,1	65,2	52,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2,6	6,0	96,3	2,3 m.	2,1	5,2
Turli xil tayyor buyumlar	16,2	20,5	117,2	126,0	13,1	17,7
Xizmatlar	0,2	0,3	35,9	132,7	0,2	0,2


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 %ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (52,9%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,6%) va turli xil tayyor buyumlar (17,7%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 %ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSH
dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,6 %ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar, mln.AQSH doll.)*



2023- y.

2024- y.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar oyida 15,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 7,5 mln. AQSh dollariga teng 14,6 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 1,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 0,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 8,6 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va
rezavorlar
0,7 ming tonna
1,1 mln. AQSH
dollari

Uzum
0,5 ming tonna
0,6 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g'oqlar
0,01 ming tonna
0,01 mln.
AQSH dollari

Sabzavotlar
14,6 ming tonna
7,5 mln. AQSH
dollari




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar oyida import hajmi 277,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 90,2 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (41,8%), sanoat tovarlari (12,3%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (8,6%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,2 mln. AQSH dollariga kamaydi va 277,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,1 mln. AQSH dollariga yetdi.




TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	307,8	277,5	111,2	90,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	58,9	48,7	101,5	82,7	19,1	17,6
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,1	4,8 m.	55,7	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	68,8	18,0	162,9	26,1	22,4	6,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	18,1	21,9	3,8 m.	120,8	5,9	7,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	8,8	7,4	2,1 m.	84,3	2,9	2,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	29,2	23,9	103,9	82,1	9,5	8,6
Sanoat tovarlari	32,3	34,0	67,6	105,4	10,5	12,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	85,8	116,2	118,8	135,4	27,9	41,9
Turli xil tayyor buyumlar	5,5	5,2	39,7	95,2	1,8	1,9
Boshqa tovarlar	0,0	2,0	-	-	0,0	0,7
Xizmatlar	0,2	0,1	4,8	55,8	0,1	0,0

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 37,9 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,9 %ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Turkmaniston) jami importning 87,0 %ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar, mln. AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.